



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aminov Mirobos Askar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

e-mail: mr4689959@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10373523>

ARTICLE INFO

Received: 06th December 2023

Accepted: 13th December 2023

Online: 14th December 2023

KEY WORDS

"Davlat-xususiy sheriklik",
"Public-private partnership",
"Davlat-xususiy sheriklik"
qonunchiligi, davlat-xususiy
shiriklik obyekti, davlat-xususiy
shiriklik munosabatlari,
huquqiy institut.

ABSTRACT

Ommaviy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilish, shuningdek, jamiyat manfaatlariga erishish davlatlar oldida turgan asosiy vazifalardir. Ayni paytda, har bir davlatda bunday muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan yetarli resurslar (materiallar, xodimlar va boshqalar) mavjud emas. Bu, ayniqsa, davlatlarning byudjet taqchilligi davrida va beqaror iqtisodiy vaziyat sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan omillar jamiyat manfaatlariga erishishga qaratilgan vazifalarni hal qilishni tadbirkorlik sub'ektlariga topshirish zarurligini ko'rsatadi. Davlatning bunday sub'ektlar bilan o'zaro aloqasi odatda davlat-xususiy sherikligi deb ataladi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida davlat-xususiy sheriklik munosabatlari ham jadal suratlarida rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ushbu sohaga ko'proq murojaat qilinmoqda. Xususan, 2020 yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida, "...hududlarda amalga oshiriladigan loyihalar bundan buyon mahalliy Kengashlar va jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Ularning natijalari to'g'risida jamoatchilikka hisobot berish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, davlat nomidan tashqi qarz olish kamaytirilib, investitsiya va infratuzilma loyihalariga ko'proq xususiy kapital jalb etiladi.

Masalan, keyingi yilda davlat-xususiy sheriklik asosida 40 dan ortiq yirik va o'rta loyihalarni amalga oshirish boshlanadi..."[1], deb ta'kidlanishi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Ommaviy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilish, shuningdek, jamiyat manfaatlariga erishish davlatlar oldida turgan asosiy vazifalardir. Ayni paytda, har bir davlatda bunday muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan yetarli resurslar (materiallar, xodimlar va boshqalar) mavjud emas. Bu, ayniqsa, davlatlarning byudjet taqchilligi davrida va beqaror iqtisodiy vaziyat sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan omillar jamiyat manfaatlariga erishishga qaratilgan vazifalarni hal qilishni tadbirkorlik sub'ektlariga



topshirish zarurligini ko'rsatadi. Davlatning bunday sub'ektlar bilan o'zaro aloqasi odatda davlat-xususiy sherikligi deb ataladi.

"Davlat-xususiy sheriklik" atamasi "Public-private partnership", atamasining so'zma-so'z tarjimasidir. Ushbu tushuncha xorijiy mualliflar tomonidan davlat va xususiy sherikning ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal qilishdagi o'zaro ta'siri sifatida talqin etiladi[2].

DXSH institutining shakllanishi va rivojlanishi tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Ushbu institut amaliy qo'llanilishining birinchi misollaridan biri oldindan to'lov - davlat tomonidan soliqlarni va boshqa davlat daromadlarini yig'ish huquqini ma'lum bir haq evaziga va ma'lum shartlar asosida sotib olishdir. Bu haqda keying paragrafda batafsil to'xtalib o'tamiz.

XX asrning 90-yillarda Buyuk Britaniyada xususiy sarmoyadorlarga infratuzilma ob'ektlarini davlat ulushlari asosida qurishga imkon beruvchi maxsus qonun qabul qilinishi munosabati bilan (*private financing initiative*-xususiy moliyalashtirish tashabbusi) hukumat va tadbirkorlik o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi.

Keyinchalik, DXSH ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun xususiy sarmoyalarni jalb qilishning eng samarali vositalaridan biri sifatida butun dunyoda qo'llanila boshlandi.

Ayni paytda butun dunyoda DXSH haqida umumiy tushuncha mavjud emas.

Shunday qilib, Jahon banki DXSHni "davlat va xususiy sektor o'rtasida infratuzilma xizmatlarini ishlab chiqarish va taqdim etishda qo'shimcha moliyalashtirishni jalb qilish uchun zarur bo'lgan va eng muhimi, davlat investisiyalari samaradorligini oshirish imkoniyati sifatida kelishuv [3]" deb ta'riflaydi. Yevropa Ittifoqi Yevropa Parlamentining 2004 yildagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat-xususiy sheriklik va jamiyat qonunchiligi va davlat shartnomalari va konsessiya to'g'risida" gi qonunida (Yashil kitob) DXSH davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorlikning bir shakli sifatida belgilangan bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyalashtirish, qurilish, infratuzilma ob'ektini rekonstruksiya qilish, boshqarish va xizmat ko'rsatishdir deb qayd etilgan[4].

"DXSH Canada Inc." tashkiloti quyidagi ta'rifni beradi: "Davlat-xususiy sheriklik bu uzoq muddatli asosda davlat infratuzilmasini ta'minlashning bir usuli. Unga ko'ra, xususiy sektor tavakkalchilik javobgarligining asosiy ulushini o'z zimmasiga oladi va infratuzilma ob'ektlarini yaratishni rivojlantirishdan uzoq muddatli xizmat ko'rsatishga qadar moliyalashtiradi. Davlat-xususiy sheriklik yirik va murakkab infratuzilma loyihalarini boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni hal qiladi. Masalan, kapital va xavflarni baholashning yo'qligi, chunki kapital qo'yilmalar va ularni qaytarish qiymati kapital qiymatini hisobga olmasdan amalga oshiriladi; infratuzilmani rivojlantirish va ta'minlashni vakolatli amalga oshirish uchun imkoniyatlarning yetishmasligi, chunki davlat va xususiy sektor hamkorligini amalga oshirishda ko'proq malakali xodimlar jalb qilinadi; loyihalashtirish, qurish va foydalanish mutlaqo boshqacha jarayonlar sifatida qaralishi va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olmasdan amalga oshirilganligi sababli infratuzilma ob'ektlarini yaratilishining butun davri mobaynida mablag'larning yetarli darajada hisobga olinmasligi; shuningdek, buyurtmalarni o'zgartirishni osonlashtirish va pudratchilar uchun xarajatlarni ko'paytirish uchun rag'batlantiruvchi omillarni keltirib chiqaradigan shartnoma intizomining yetishmasligi muammosi"[5].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti Boshqaruvi Tehnik Hamkorlik Komissiyasi tomonidan taqdim etilgan ta'rifga ko'ra, "davlat-xususiy sheriklik - bu jamoat sektori (davlat) va xususiy



sektor (nodavlat) ning turli subyektlari o'rtasida ixtiyoriy hamkorlik tashabbuslari bo'lib, umumiy maqsadni amalga oshirish yoki aniq muammolarni hal qilish uchun ular doirasida sheriklar birgalikda ishlashga rozi bo'lishadi [6].

Rasmiy Britaniya hujjatlaridagi ta'rif quyidagicha: "Davlat-xususiy sheriklik, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli asosdagi hamkorlikni o'z ichiga oladi. Bunday hamkorlik turli xil sheriklik turlarini qamrab oladi, masalan, davlat korxonalarida xususiy mulk sektorini joriy etish, katta yoki kichikroq ulushni sotish bilan barcha mumkin bo'lgan tuzilmalardan foydalanish"[7].

AQSh qonunchiligiga ko'ra, DXSH "davlat va xususiy kompaniya o'rtasida tuzilgan shartnomaviy bitim, bu kelishilgan shaklda davlat mulkida ishtirok etish va davlat hokimiyati organlarining javobgarligi ostida an'anaviy ravishda funksiyalarni bajarishga imkon beradi"[8]. O'z navbatida, "Ukraina Respublikasining davlat-xususiy sherikligi to'g'risida" gi Qonun[9] 1-moddada DXSHni Ukraina (davlat sherigi) va yuridik shaxslar, (davlat va kommunal korxonalar bundan mustasno) yoki jismoniy shaxslar - tadbirkorlar (xususiy sheriklar), bu qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishuv asosida amalga oshiriladi. "Belorusiya Respublikasining davlat-xususiy sherikligi to'g'risida" gi qonunning 2-moddasiga[10] muvofiq, DXSh - bu resurslarni birlashtirish va tavakkallarni taqsimlash maqsadida ma'lum muddat davomida qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan davlat va xususiy sheriklar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikdir. Qozog'iston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi qonuniga binoan[11] DXSH davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasidagi hamkorlikning bir shakli hisoblanadi. "Rossiya Federasiyasidagi davlat-xususiy sheriklik, munisipal-xususiy sheriklik to'g'risida va Rossiya Federasiyasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonuni[12] DXSHni ma'lum bir davr uchun xatarlarni taqsimlash, bir tomondan davlat sherigi va boshqa tomondan xususiy sherik o'rtasidagi hamkorlik, bu iqtisodiyotga xususiy investisiyalarni jalb qilish, tovarlar, ishlar, xizmatlar va ularning sifatini yaxshilash uchun qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan va resurslarni birlashtirishga asoslangan holda belgilaydi.

DXSHning huquqiy ta'rifi mavjudligiga qaramay, ilmiy jamoatchilik o'rtasida uning huquqiy mohiyati haqida yagona fikr yo'q.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, DXSH ko'pincha bilvosita xususiylashtirish (yarim xususiylashtirish) sifatida qaraladi. Gap davlat uchun mablag' bo'lmagan (uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha, transport) tarmoqlari uchun davlat va tadbirkorlik o'rtasida vakolatlarni qayta taqsimlash haqida ketmoqda. Biroq, fikrimizcha, DXSHni xususiylashtirish degan g'oya noto'g'ri. Chunki, davlat mulkini jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulki sifatida xususiylashtirishning maqsadi ushbu mulkni xususiy mulkka o'tkazish va shunga muvofiq shaxsiy manfaatlarni qondirishdir. O'z navbatida, DXSH jamiyat manfaatlariga erishish uchun ishlatiladi.

DXSHning huquqiy mohiyati yuzasidan huquqshunos olimlar o'rtasida yagona fikr yo'q. Ba'zi mualliflar ushbu institutning huquqiy mohiyatini aniqlashga urinmoqdalar. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar DXSHni fuqarolik-huquqiy munosabatlar deb ta'riflaydilar[13]. Bunga qarshi munosabatda bo'lgan mualliflarning fikricha, ko'rib chiqilayotgan yuridik institut nafaqat fuqarolik-huquqiy munosabatlar[14], balki ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni



amalga oshirish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasida tashkil etilgan va rivojlangan tashkiliy-i huquqiy munosabatlarga ham vositachilik qiladi[15].

V.G.Varnavskiyning fikricha: "davlat-xususiy sheriklik bu bir vaqtning o'zida qo'shma investisiyalar va xavflarni taqsimlashni o'z ichiga olgan huquqiy tizim, bir tomondan davlat va munisipalitetlar, boshqa tomondan fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar tizimi[16]. Xuddi shu muallifning boshqa ta'rifida, "Davlat va xususiy sheriklik - xizmat ko'rsatish sohasiga qadar, sanoat va ilmiy-tadqiqot ishlarining keng doiralarida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalar va dasturlarni amalga oshirish uchun davlat va tadbirkorlik o'rtasidagi institusional va tashkiliy ittifoq"[17] -deb ta'kidlangan.

A.V.Belitskaya ushbu atamani quyidagicha ta'riflaydi: «Davlat-xususiy sheriklik bu davlat va xususiy tadbirkorlikning o'zaro munosabat shakllaridan biri bo'lib, u investision faoliyat turi sifatida samarali huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Davlat-xususiy sheriklik deganda investisiya subyekting mezon bilan ajralib turadigan davlat investisiyalari va xususiy investisiyalar bilan bir qatorda investisiya faoliyati turlari tushuniladi. Davlat-xususiy sheriklik deganda, davlat va xususiy sherknlarning jamoat manfaati va nazorati sohasidagi ob'ektlarga nisbatan investisiya loyihalarini amalga oshirish orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal etish maqsadida xatarlarni taqsimlash asosida o'zaro hamkorlik qilish tushuniladi"[18].

N.A.Ignatyukning fikriga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik - bu davlat hokimiyati va yuridik shaxslar, fuqarolar yoki ularning birlashmalari o'rtasidagi resurslar, mablag'lar, mulk, harakatlar yoki potensialni birlashtirish asosida amalga oshiriladigan va davlat siyosatini amalga oshirishga, davlat ehtiyojlarini qondirishga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hamkorlikni yaratishga qaratilgan hamkorlikning bir turi[19].

I.A.Gubanovning fikricha, keng ma'noda davlat-xususiy sheriklik bu mustaqil fanlararo huquqiy institutni tashkil etadigan huquqiy normalar tizimidir. Ushbu huquqiy institut vakolatli federal organlar yoki Federasiyaning tarkibiy tuzilmalari tomonidan vakolat berilgan davlatning ta'sis tuzilmalari vakolatli organlari va vakolatli mahalliy hokimiyatlar tomonidan vakillik qilinadigan munisipal tashkilotlar tomonidan yuridik shaxslar (shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar) bilan o'zaro munosabatlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikning turli xil huquqiy shakllarini birlashtirgan tizim sifatida ushbu institut tor ma'noda tushuniladi. Hamkorlikning ushbu tizimiga quyidagilar kiradi: konsessiya shartnomalari, davlat korporasiyalari, investisiya loyihalarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan mablag'lar, federal maqsadli dasturlar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik shartnomalari, ishlanmalar loyihalari, ishonchli boshqaruv shartnomalari, birgalikda moliyalashtirilgan korxonalar[20].

DXSH huquqning turli soha normalari bilan tartibga solinadi: fuqarolik va tadbirkorlik (uning shartnomaviy huquqiy shakllarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish nuqtai nazaridan), ma'muriy (vakolatli organlarning vakolatlarini belgilash nuqtai nazaridan), shuningdek soliq (soliq imtiyozlari berish), yer va boshqalar. Binobarin, DXSHning huquqiy tabiati murakkabdir.

Bundan tashqari, ba'zi huquqshunos olimlar davlat yoki xususiy sektorning ustuvor ahamiyati nuqtai nazaridan DXSHni belgilaydilar. Shunday qilib, ayrim mualliflar xususiy



sektorning muhimligini, uning investisiya imkoniyatlarini, DXSHning mohiyatini infratuzilma loyihalariga sarmoyalarni jalb qilish vositasi[21] deya ta'kidlaydilar hamda xususiy sektor tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish mexanizmi sifatida belgilaydilar[22]. Ushbu yondashuv ushbu institutni "davlat-xususiy sheriklik" deb nomlash bo'yicha takliflarning paydo bo'lishini oldindan belgilab qo'ydi va uning loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektorning rolini mustahkamlaydi[23].

Boshqa mualliflar, aksincha, davlatning ustun mavqeiga e'tibor qaratib, DXSHni tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakli sifatida ko'rib chiqmoqdalar, bu tadbirkorlik sub'ektlarining ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlarini moliyalashtirishda davlatning ishtirok etishidan iborat[24].

Bizning fikrimizcha, DXSHni tushunishda bunday yondashuv to'g'ri emas. Sababi, DXSH ishtirokchilaridan birining ikkinchisiga nisbatan ustunlik qilishi sheriklik g'oyasiga qarama-arshi bo'lib qoladi.

DXSHning huquqiy mohiyati uning tenglik prinsiplari bilan oldindan belgilanadi. Bu, xususan, "shiriklik" atamasining lug'aviy ma'nosi - sheriklarning har biri uchun foydali bo'lgan hamkorlik bilan ko'rsatilgan. Shu munosabat bilan biz DXSHni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasida resurslarni birlashtirish asosida amalga oshiriladigan va davlat siyosatini amalga oshirishga, jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hamkorlikning bir turi[25]; ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida hukumat va tadbirkorlik o'rtasidagi institusional va tashkiliy ittifoq[26] deb hisoblaydigan mualliflar bilan kelisha olamiz.

Ushbu yondashuv tarixiy jihatdan DXSHning birinchi na'munalari ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilish uchun xususiy va davlat sektorlari o'rtasida o'zaro manfaatli, ixtiyoriy hamkorlikni ifodalaganligi bilan qo'llab-quvvatlanadi[27].

DXSHning maxsus huquqiy shakllari. DXSH o'zining huquqiy shakllarining xilma-xilligi bilan tavsiflanadi - muayyan turdagi iqtisodiy munosabatlarga vositachilik qiladigan normalar yoki huquqiy institutlar to'plami....[28]

DXSH belgilari. Davlat-xususiy sheriklik belgilari quyidagi xususiyatlar bilan ajratiladi: ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad, ishtirokchilar tarkibi, muddati, DXSH ob'ekti, moliyalashtirish manbai, tavakkalchilik va foydani taqsimlash, maxsus huquqiy shakl. Shuningdek, ushbu ro'yxat DXSH uchun ham xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar bilan ham to'ldiriladi: maxsus huquqiy tartibga solish; xususiy sherikga bir qator kafolatlar berish.

DXSHning ijtimoiy ahamiyatli maqsadi. DXSH ishtirokchilari jamiyat turmush darajasini yaxshilashga va farovonligini oshirishga yordam beradigan maqsadlarga erishishga intilishadi, bu ijtimoiy ahamiyatga ega natijaga erishishda ya'ni, mamlakat yoki alohida mintaqalar uchun muhim bo'lgan loyihani amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, DXSH natijasida aholining tovarlarni, ishlarni yoki xizmatlarni taqdim etishga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi, uni qondirish davlat vakolatiga kiradi.

DXSH munosabatlarining ishtirokchilari. "Xususiy sherik" - bu oddiy sheriklik shartnomasi asosida yuridik shaxs tashkil qilmasdan faoliyat yuritadigan yuridik shaxslarning birlashmalarini, shuningdek tijorat tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarni, shuningdek, agar ikkinchisi bo'lsa, notijorat tashkilotlarini o'z ichiga olgan jamoaviy tushuncha. Daromad keltiradigan faoliyat faqatgina ular yaratgan maqsadlarga erishishga



xizmat qiladigan va ularga mos keladigan darajada. Bundan tashqari, notijorat tashkilotlar faqat xususiy kapital ishtirokida tuzilishi kerak (shuning uchun davlat korporatsiyalari va kompaniyalari DXShda xususiy sherik bo'la olmaydi), aks holda DXShning ma'nosi yo'qoladi. Yuridik shaxs-xususiy sherikning ustav kapitalida davlat ishtirokining yo'qligi to'g'risidagi belgilangan talab tijorat tashkilotlariga ham bir xil darajada tegishli.

DXSHning amal qilish muddatlari. DXSH loyihasini amalga oshirish ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga xizmat qilganligi sababli, ularga erishish ma'lum bir vaqt ichida yakunlanishi kerak. Bunday muddat to'g'ridan-to'g'ri DXSH shakli to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi. Masalan, maxsus investisiya shartnomasi 10 yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi; maxsus iqtisodiy zonalar hududlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish to'g'risidagi bitimlar - 3 yildan ortiq emas; DXSH shartnomasi - 49 yildan ortiq bo'lmagan muddatga yoki DXSH ishtirokchilari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi (mahsulotni taqsimlash shartnomasi, konsessiya shartnomasi).

DXSH ob'ekti. DXSH ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilmani yaratish, rekonstruksiya qilish yoki modernizatsiya qilish uchun ishlatiladi - bu ijtimoiy hayotning ma'lum bir sohasi faoliyatini ta'minlashga, shu jumladan aholini tovarlar, ishlar va xizmatlar bilan ta'minlashga qaratilgan ob'ektlar majmui[29]. Odatda, bu avtomobil yo'llari, o'quv, madaniy, sport inshootlari, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish, yo'q qilish, obodonlashtirish inshootlari va boshqalar.

Bugungi kunga kelib, ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar DXSH ob'ekti bo'lishi mumkinmi degan masala hal qilinmagan. Amaldagi qonunchilik ularni DXSH ob'ektlari ro'yxatiga kiritmagan. Biroq, ba'zi mualliflar ushbu imkoniyatni tan olishadi. DXSH ob'ektlari ro'yxatini ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar bilan to'ldirish davlat xarajatlarini kamaytiradi, bunday xizmatlarni ko'rsatish samaradorligi va sifatini oshiradi. Taqqoslash nuqtai nazaridan shuni ta'kidlaymizki, ayrim xorijiy davlatlarda DXSH asosida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, madaniyat va sport, ta'lim sohalarida ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar xususiy sektorga berilgan[30]. Masalan, fransuz qonunchiligi jamiyat ishlarida xizmat ko'rsatuvchi va jamiyat ishlari uchun «*concession de service public*» tartibga soladi. Bundan tashqari, xorijiy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni ko'rsatishda "davlat ijtimoiy-xususiy sherikligi" maxsus atamasi ham ishlatiladi[31].

DXSHning asosiy xatarlari quyidagilardir: investisiya xavfi- investisiyalarni yo'qotish xavfi, ulardan to'liq daromad olmaslik; tijorat xavfi - yaratilayotgan ob'ektlarga talabning yetishmasligi, shuningdek qurilish narxining oshishi xavfi; ijodiy - DXSH loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan intellektual faoliyat natijalarini yaratishning mumkin emasligi bilan bog'liq tavakkalchilik; ekologik - atrof-muhit uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi xavfi; siyosiy (boshqaruv) - siyosiy muhit va boshqaruv tuzilmasidagi o'zgarishlar xavfi; qonuniy - qonunchilikdagi salbiy o'zgarishlar xavfi.

Moliyalashtirish manbai. DXSHni moliyalashtirish manbai, uning huquqiy shakliga qarab, xususiy yoki qo'shma moliyalashtirishdir. Shunday qilib, mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimga binoan investor o'z mablag'lari hisobidan tabiiy resurslarni qidirib topadi. Ba'zi hollarda, DXSh loyihasini moliyalashtirish davlat moliyaviy, moddiy yoki tabiiy resurslari bilan to'ldiriladi. Masalan, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi xususiy sherikga DXSh bitimi ob'ektini ham o'z hisobidan (yoki boshqa xo'jalik



yurituvchi sub'ektlarning jalb qilingan mablag'lari hisobidan), ham qisman (davlat mablag'larini jalb qilgan holda) yaratishga imkon beradi.

DXSHning maxsus huquqiy shakllari. Odatda DXSHning huquqiy shakllarini tasniflash odatiy holdir. DXSHni amalga oshirish shartlariga qarab uning huquqiy shakllarini tasniflash, ya'ni yuridik shaxsni yaratish yoki shartnoma tuzish eng katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu tasnif doirasida DXSHning shartnomaviy va korporativ shakllari ajralib turadi. Shunday qilib, DXSHni korporativ shaklda amalga oshirish uchun tashkilotning xususiy va davlat sherigi - yuridik shaxsni yaratish talab etiladi. O'z navbatida, DXSHning shartnomaviy shakli xususiy va davlat sheriklari o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim tuzilishini nazarda tutadi.

DXSHning shartnomaviy shakllari quyidagilardan iborat: konsessiya shartnomasi, mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitim, iqtisodiy faoliyatning maxsus rejimiga ega bo'lgan hududlar chegaralarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish to'g'risidagi bitim, maxsus investisiya shartnomalari. DXSHning korporativ shakllari quyidagilardir: qo'shma korxonalar, investisiya, venchur va boshqa fondlar. Taqqoslash nuqtai nazaridan shuni ta'kidlaymizki, xorijiy mamlakatlarda "DXSH shakli" atamasi qo'llanilmaydi, lekin DXSHning "modeli" va "loyihasi" atamalari faol qo'llanilmoqda.

Masalan, "Qozog'iston Respublikasining davlat-xususiy sherikligi to'g'risida" gi qonunda "DXSHni amalga oshirish usuli" tushunchasi ishlatilgan. Ushbu hujjatning 7-moddasiga binoan, DXSH amalga oshirish usuli bo'yicha institusional va shartnomaviy usullarga bo'linadi. DXSHning institusional usuli kompaniya tomonidan amalga oshiriladi. Shartnoma usuli esa quyidagilar orqali amalga oshiriladi: konsessiya; davlat mulkini ishonchli boshqarish; davlat mulkini ijaraga berish; lizing; texnologiyani rivojlantirish, prototipini ishlab chiqarish, tajriba sinovlari va kichik hajmdagi ishlab chiqarish bo'yicha shartnomalar; hayot sikli shartnomasi; xizmat ko'rsatish shartnomasi. Bu masalalar xususida keyingi paragraflarda batafsil to'xtalamiz.

DXSHni maxsus huquqiy tartibga solish va uning huquqiy shakllari. Bugungi kunga kelib, DXSHning ayrim huquqiy shakllarini tartibga soluvchi bir qator - qonunlar va boshqa hujjatlar qabul qilindi. Shunday qilib, DXSH shartnomasi DXSH to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. DXSHning boshqa shakllari, masalan, konsessiya shartnomalari, mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimlar, shuningdek, maxsus - qonunlar bilan tartibga solinadi.

Xususiy sherikni ma'lum kafolatlar bilan ta'minlash. Xususiy sheriklarning manfaatlarini himoya qilish va ularning davlat sub'ektlari bilan hamkorligini rag'batlantirish maqsadida davlat ularga ma'lum kafolatlar beradi. Masalan, maxsus investisiya shartnomasi to'g'risidagi qonunchilikka binoan investorga soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikdagi noqulay o'zgarishlardan kafolat beriladi.

Biz quyida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan ta'riflar birmabir ko'rib chiqamiz.

2019-yil 10-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunning 3-moddasining 1-qismi 1-bandiga asosan, **davlat-xususiy sheriklik — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligidir**[32].



O'zbekiston Respublikasi Prezidendining 2019-yil 16-apreldagi PQ-4290 qarori 1-ilovasi Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi Nizom 2-qismi 1-bandiga ko'ra, **sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik - o'zaro tuzilgan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimi asosida xususiy investisiyalar va (yoki) boshqaruv tajribasini jalb qilish hamda xatarlar va majburiyatlarni bo'lishish va (yoki) taqsimlash maqsadida, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasida ijtimoiy va infratuzilmaviy muammolarni hal etishga qaratilgan davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida muayyan muddatga huquqiy rasmiylashtirilgan o'zaro manfaatli hamkorlik[33].**

2019-yil 1-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 184-son qaroriga 1-ilova tarzida qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Nizomning 2-qismi 1-bandida, davlat-xususiy sheriklik-xususiy investisiyalarni jalb qilish, resurslarni birlashtirish va xavf-xatarlarni taqsimlash maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning aniq muddatga yuridik rasmiylashtirilgan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'zaro samarali hamkorligi[34], deb belgilanib qo'yilgan.

Shuningdek, 2019-yil 26-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 169-son qaroriga ilova tarzida qabul qilingan "Aholi punktlari qismlarining batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-qismi 1-bandida, davlat-xususiy sheriklik - xususiy investisiyalarni jalb qilish, resurslarni birlashtirish va xavf-xatarlarni taqsimlash maqsadida davlat va xususiy sheriklarning muayyan muddatga yuridik rasmiylashtirilgan aholi punktlari qismlarining batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish sohasidagi o'zaro samarali sherikligi[35], sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, 2018-yil 22-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 944-son qaroriga ilova tarzida qabul qilingan "Xususiy sherikka tegishli yer va bino-inshootlarda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish shaklidagi davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-qismi 1-bandida quyidagicha belgilangan, "**davlat-xususiy sheriklik-xususiy sherikka tegishli yer va bino-inshootlarda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish shaklidagi davlat sherigi va xususiy sherikning aniq muddatga yuridik rasmiylashtirilgan maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zaro samarali hamkorligi[36]**".

"Davlat-xususiy sheriklik" tushunchasining mavjud ta'riflarini hisobga olgan holda, biz muallif sifatida ushbu tushunchani ko'p qirrali deb hisoblash zarur deb hisoblaymiz:

1) **keng ma'noda**, davlat-xususiy sheriklik davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining butun jamiyat va uning alohida qatlamlari, shu jumladan tadbirkorlik hamjamiyatlari, fuqarolik jamiyati va boshqalar bilan o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligi sifatida qaraladi.

2) **tor ma'noda**, davlat-xususiy sheriklik murakkab huquqiy va tashkiliy-huquqiy mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi, bu davlat va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida iqtisodiy va institusional hamkorlikni ta'minlaydigan maxsus vositalar va mexanizmlar tizimidir.



"Davlat-xususiy sheriklik" tushunchasining qiyosiy tahlili bizga ushbu konsepsiyaning **mualliflik ta'rifini** ishlab chiqish va taklif qilish imkonini berdi.

Davlat-xususiy sheriklik - bu davlat hokimiyati organi (davlat hokimiyati yoki mahalliy boshqaruv) bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning murakkab huquqiy va iqtisodiy mexanizmi.

References:

1. 2020 yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/4056>
2. A Guide to Public-Private Partnerships: research report. [https://www.nigp.org/docs/default-source/New-Site/research-reports/guidetopublic-privatepartnerships\(ppps\)-whatpublicprocurementspecialistsneednowfinal.pdf?sfvrsn=4](https://www.nigp.org/docs/default-source/New-Site/research-reports/guidetopublic-privatepartnerships(ppps)-whatpublicprocurementspecialistsneednowfinal.pdf?sfvrsn=4);
3. Marana P., Labaka L., Sarriegi J. A framework for public-private-people partnerships in the city resilience-building process // Safety Science. 2018. № 110.
4. Jahon bankining davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi Hisoboti. projects.worldbank.org/P125595/?lang=ru&tab=ratings
5. European Parliament Resolution on Green Paper on services of general interest 21.05.2003 № 270 (T5-0018/2004) <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/BG/TXT/?uri=celex:52004DC0374>
6. What is a P3? // <http://www.p3canada.ca/what-is-a-p3.php>.
7. Asociaciones público-privadas // http://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_norm/---relconf/documens/meetingdocument/wcms_090614.pdf.
8. Public private partnerships. The Government's approach. – Norwich: Crown Copyright, 2000. – 49 p. – P. 10. <http://www.hm-treasury.gov.uk/d/80.pdf>.
9. Варнавский В.Г., Климов А.Б., Королев А.В. Государственно-частное партнерство: теория и практика. С. 33.
10. Ukrainaning "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi 2010 yil 1 iyuldagi 2404-VI-son qonuni http://kodeksy.com.ua/ka/o_gosudarstvenno-chastnom_partnerstve.htm
11. 2015 yil 30 dekabrda 345-3-sonli Belorusiya Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi qonuni http://kodeksy.com.ua/ka/o_gosudarstvenno-chastnom_partnerstve.htm
12. Qozog'iston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi 2019 yil 22 iyuldagi 379-V-sonli qonuni http://kodeksy.com.kz/o_gosudarstvenno-chastnom_partnerstve.htm
13. 2015 yil 13 iyuldagi 224-FZ-sonli "Rossiya Federatsiyasida davlat-xususiy sherikligi, munitsipal-xususiy sheriklik va Rossiya Federatsiyasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" Federal qonun. // Rossiya qonun hujjatlari to'plami. 2015. №29 (I qism)
14. Царев Д., Иванчук А. Государственно-частное партнерство: правовой аспект // Финансовая газета. 2009.
15. № 17.



16. Игнатюк Н.А. Государственно-частное партнерство в России // Право и экономика. 2006. № 8. Коровин Е. Кредитный риск проектов частно-государственного партнерства и механизмы поддержки инвестиций http://regionalistica.ru/project/investproject/fed_instr
17. Фильченков В.А. Понятие, принципы, условия эффективности и признаки государственно-частного партнерства www.mgus.ru/files.journal/number2/filchenkov.doc
18. Варнавский В.Г. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики // Мировая экономика и международные отношения. – 2011. – № 9.
19. Варнавский В.Г. Государственно-частное партнерство в России: проблемы становления // Отечественные записки. – 2004. – № 6.
20. Белицкая А.В. Государственно-частное партнерство: понятие, содержание, правовое регулирование: Автореф. дис. ... канд. юридич. наук: 12.00.03 / МГУ им. М.В. Ломоносова. – М., 2011.
21. Игнатюк Н.А. Государственно-частное партнерство: Уч. – М.: Юстицинформ, 2012.
22. Губанов И.А. Государственно-частное партнерство в реализации функций российского государства. (вопросы теории и практики): Автореф. дис. ... канд. юридич. наук: 12.00.01 / Юридический институт (СПб). – СПб., 2010.
23. Иванов И. Государственно-частные партнерства в России: практика и проблемы регулирования // Корпоративный юрист. 2005. № 3.
24. Чернышев О.А., Калашникова Е.О. Развитие государственно-частного партнерства в России http://www.rusk.ru/analitika/2009/02/17/razvitie_gosudarstvenno_chastnogo_partnerstva_v_rossii/
25. Майор И.Г. Причины и принципы частно-государственного партнерства (гражданско-правовой аспект) // Общество и право. 2008. № 1.
26. Шишкин С.Н. Государственное регулирование экономики: предпринимательско-правовой аспект. М.: ВолтерсКлувер, 2007.
27. Игнатюк Н.А. Государственно-частное партнерство в Российской Федерации. М.: Эксмо, 2009.
28. Варнавский В.Г. Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски. М.: Наука, 2005.
29. Белицкая А.В. Реализация инвестиционной политики государства через механизмы государственно-частного партнерства // Петербургский юрист. 2016. № 1.
30. Белицкая А.В. Правовое регулирование государственно-частного партнерства;
31. Игнатюк Н.А. Государственно-частное партнерство в Российской Федерации.; Варнавский В.Г. Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски.; Попондопуло В.Ф. Законодательство о публично-частном партнерстве: цели и предмет регулирования, основные понятия // под общ. ред. С.Д. Могилевского, М.А. Егоровой. М.: Юстицинформ, 2016.
32. Hodge G., Greve C., Biygautane M. 2018. Do PPP's Work? What and How Have We Been Learning So Far? – *Public Management Review*. Vol. 20. Issue 8. DOI: <https://doi.org/10.1080/14719037.2018.1428410>



33. Белицкая А.В. Правовые аспекты предоставления публичных услуг в рамках государственно-частного партнерства // Предпринимательское право. 2010. № 2.
34. Зайнашева З.Г., Семкина О.Б. Государственно-частное партнерство в сфере оказания социально-значимых услуг // Вестник Университета. 2013. № 3.
35. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/537/3113-son; 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 03.07.2023-y., 03/23/850/0439-son
36. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlat milliy bazasi